

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ялмагиевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

22. Xurinsa Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
26. Робиға Мамбетова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
27. Ҳамидулла Годжиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
28. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
29. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
30. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
31. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
32. Матлуба Шукурова ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
33. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195




Xurinsa Xudoyberdiyeva

Namangan davlat universiteti doktoranti

Email: xudoyberdiyevaxurinsina@gmail.com

TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI

(*Xosiyat Rustamova lirikasi misolida*)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087403>

ANNOTATSIYA

O'zbek tilshunosligida so'zning qo'llanishi bilan bog'liq xolda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaligi turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ko'chim turlarining uslubiy jihatlari bugungi kunda o'rganilishi jihatdan tilshunoslar oldidagi katta vazifalardan biridir. Ana shunday birliklarni lingvostilistik nuqati nazardan tahlil qilish maqsadida o'zbek xalqining sevimli shoirasi Xosiyat Rustamova lirikasida ifodalangan troplar lingvostilistik jihatdan tahlil qilishni ushbu maqolamiz orqali amalga oshiramiz.

Kalit so'zlar: trop, metafora, metonimiya, sinekdoxa, lingvostilistika.

STYLISH CHARACTERISTICS OF TROPES

(On the example of Khosiyat Rustamova's lyrics)

ANNOTATION

In Uzbek linguistics, additional semantic subtleties and changes in content that arise in connection with the use of a word can be realized through various methods and means of depiction. The stylistic aspects of the types of transitions are one of the major tasks facing linguists today. In order to analyze such units from a linguist-stylistic point of view, we will conduct a linguist-stylistic analysis of the tropes expressed in the lyrics of the beloved poetess of the Uzbek people, Khosiyat Rustamova, through this article.

Keywords: trope, metaphor, metonymy, synecdoche, linguistic and stylistic.

СТИЛЕВЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ТРОПОВ

(На примере лирики Хосият Рустамовой)

АННОТАЦИЯ

В узбекской лингвистике дополнительные семантические нюансы и изменения содержания, возникающие в связи с употреблением слова, могут быть реализованы посредством различных приёмов и средств изображения. Стилистические аспекты типов переходов являются одной из важнейших задач, стоящих перед современными лингвистами. Для анализа таких единиц с лингвостилистической точки зрения в данной статье мы проведём лингвистико-стилистический анализ тропов, выраженных в лирике любимой поэтессы узбекского народа Хосият Рустамовой.

Ключевые слова: троп, метафора, метонимия, синекдоха, лингвостилистические.

KIRISH

O'zbek tilidagi har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonunlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor betakror tasvir, kutilmagan, oxorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi.

So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatt, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq xolda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaligi turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida ko'chim turlarining uslubiy jihatlari bugungi kunda o'rganilishi jihatdan tilshunoslar oldidagi katta vazifalardan biridir. Ushbu maqolamizda metaforaning lingvostilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O.S.Axmanovning "Lingvistik terminlar lug'ati"da metaforaga shunday ta'rif beriladi: "O'xshashlik, qiyoslash va boshqalarga asoslanib, so'z va ifodalarni ko'chma ma'noda qo'llashdan tashkil topgan trop". A.E.Efimov, M.N.Kojina, D.E.Rozintal, G.L.Abramovich kabi olimlarning qarashlari ham umuman shu ma'noda. Hatto, antik davr olimlaridan biri Arestotel ham shu fikrda bo'lgan. U o'zining "Ritorika" asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: "Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi". Ammo ular ko'chma ma'noda qo'llangan har qanday so'zga metafora deb qarashgan.

M.N.Kojina o'zining "Rus tili stilistikasi" kitobida "...metafora deganda predmet yoki hodisani aniqlash uchun biror bir qiyolash, taqqoslash asosida ko'chma ma'noda qo'llangan so'z va nutq oboroti tushuniladi" deya ta'riflaydi.

O'zbek tilshunosligida N.Shukurov, R.Qo'ng'urov, T.Rasulov, T.Aliqulov, S.Usmonov kabi olimlarning ishlarida ham metafora haqida fikrlar bildirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani metodologik jihatdan tahlil qilishda tavsiflash, qiyoslash va struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zbek tili leksik qatlamining katta qismini polisemantik so'zlar tashkil etadi. So'zni o'ziga xos kontekstda, so'zlar qurshovida ifodalash, voqelikni maxsus ta'riflash asosida troplar hosil qilinadi.

Troplar so'z ma'nolarini turli psinsp asosida ko'chirish usulidir. Ular nutqiy obraz yaratish, ekspressiv, emotsional xis-tuyg'ularni ifodalashning maxsus usullari hisoblanadi. So'z yoki so'z birikmasi turli xil prinsp asosida yangi ma'noga ko'chiriladi. Shunga ko'ra troplarning xilma-xil turlari mavjud: metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, allegoriya, ironiya, mubolag'a, litota kabi.

Troplarni qo'llash badiiy nutqimizda yangi mazmundagi yangi so'z birikmalarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ular orasida ekspressivlik-emotsionallikni ifodalashda eng boy va mahsuldor turlaridan biri metafora hisoblanadi.

Metafora (yn.metaphora – ko'chirish) – bir predmetning nomini boshqa predmetga bir tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish. Metafora leksik ma'noning taraqqiyotini ko'rsatuvchi til xodisasi bo'lib, u so'zlarning ko'chgan ma'nosi asosida paydo bo'ladi. Ushbu hodisa zaminida qiyoslash natijasida aniqlangan o'xshatish g'oyasi yotadi.

Ana shunday ko'chim turlarini o'z ijodida qo'llash orqali shoir va yozuvchilarimiz ularning eng go'zal, takrorlanmas va insonlar ruhiy olamini larzaga soluvchi na'munalarini hosil qilish orqali o'zining stilistik imkoniyatlarini ochib berishadi. Buning yorqin ifodasini Xosiyat Rustamova ijodida ham uchratishimiz mumkin.

Shoira she'riyati matniga asoslanib, unda qo'llanilgan metaforalarni leksik jihatdan ikki guruhga ajratib olamiz:

1.An'anaviy metaforalar: hayot darsi(7), dardmand yurak(8), ko'kning biqini(48), soddagina vatanim(68),otliq bulutlar(105), zabardast shamollar(168), pahlavon daraxtlar(204), ko'k

tuynugi(205), beiqbol daraxt(209,) kambag'al qushlar(215), zulmat saltanati(216), g'amgin shamol(240).

2.Individual metaforalar: g'arblik qushlar(10), o'ychan gullar(10), layli daraxtlar, shamol etagi (12), aljiragan suvlar toshqini, og'zi kuygan baliqlar (17), g'iybatchi kun, kuydurmajon quyosh (29), rashkchi momaqaldiraq(30), aynigan fikr(31), behalovat so'z(78), homilador bechora yer(193), non tegmagan o'n ikki bola(218), to'r osmon(244), muhabbat o'limi, sevgi o'limi(260), besaramjon tun, xazonning o'jar qotili(265).

Metaforizatsiya odatda o'zining biror xarakterli belgi-xususiyati bilan ajralib turuvchi predmetlarning ismlari, shuningdek, o'zida harakatning intensiv darajasini (maxsus qo'llanganda) ifodalovchi fe'llar asosida hosil qilinadi. Metaforalar ot va fe'l so'zlaridan tuziladi. Shunga ko'ra ularni ikki turga ajratish mumkin:

- a) **ot metafora;**
- b) **fe'l metafora.**

Otdan hosil qilingan metaforalar, garchi ular predmet nomlari bo'lsa-da, predmet ma'nosini emas, balki o'sha otga xos belgi ma'nosini bildiradi. Chunki metafora uchun anashu otning belgi-xususiyati asos qilib olinadi.

Xosiyat Rustamova ijodida qo'llangan ot metaforalarni semantik jihatdan quyidagicha guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1.Samovot nomlari asosida hosil qilingan metaforalar: ko'kning bo'yni(7), istarasi issiq quyosh(15), kuydurmajon quyosh(29), rashkchi momaqaldiraq(30), yulduzlarning changi(38), ko'kning biqini, askar bulutlar(46), yuzi qalin quyosh(51), bulutlar-osmonga tikilgan chodir, shamol-nasixatgo'y, oy-mergan(73), osmonning shashti, zabardast shamollar(168).

2.Predmet nomlari bilan bog'liq metaforalar: o'lim pichog'i(107), yillar halinchagi(109), izg'irin paltosi(120), oynavand shkaf(132).

3.Belgi bildiruvchi so'zlar asosida xosil bo'lgan metaforalar: dardmand yurak(8), soddagina vatanim(68), shaffof tong, oq so'zlar(69), behalovat so'z(77), muhtasham Berlin(93), og'ir sukunat(146), hayotidan mamnun saharlar(156), injiq qushlar(161), homilador yer(193), pahlavon daraxtlar(204), serajin tuproq, beiqbol daraxtlar(209), kambag'al qushlar(215), g'amin shamol(240), bog'lar qora kiyimda(234).

Fe'llarning metaforizatsiyalashuvini faqatgina matnda anglash mumkin. Chunki metafora hodisasi matnda ifodalanadi. Undan ajratib olingan so'z hech qanday stilistik ahamyat kasb etmaydi.

X.Rustamova she'rlaridagi fe'l metaforalarga grammatik jihatdan quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiqdir:

1.Sof fe'l metaforizatsiyasi: sudraladi shamol etagi(8), ko'chaga chiqadi gaplar(11), suv nay chalar(15), oy qichqirar, ko'k aylanar(18), toblanadi salqin chaylalar, hansiraydi yer(21), qiyqirib kuladi oy(109), sollanib yiqildi nayza(120), tunni osmasoat o'tkazar yurib(132), temiryo'l chinqirar bo'zlar(134), anor tunni qo'rqitar(152), tun yonboshlab tortadi chilim(169), boshim yig'lar soyabonsiz(240).

2.Sifatdosh metaforizatsiyasi: oyni orqalagan osmon(11), afti burushgan to'nka(15), charchagan ketmon, aljiragan suv, og'zi kuygan baliqlar(17), tunga sanchilgan o'q(18), ensasi qotgan bulutlar, o'zini yo'qotib qo'ygan samovot, oyoqlari qonga belangan hayot(46), rahmi kelgan eshkaklar(92), qonsiragan pichoqlar(216), yig'layotgan mart(217).

3.Ravishdosh metaforizatsiyasi: adashib qolar kuz(9), anor yorib olar peshonasini(16), uyalib ketar ariqlar(17), qoqib yurar bulutlar(38), osmon yopib qo'yar sutli nonini(54), g'ijimlanib ketar qo'limda havo, ko'zgu olib qochmas ko'zini(57), shamol daraxtlarni qo'ltiqib olib(125), oymomo chinqirib yoqamdan olar(104), izg'ib yurar uyma-uy hayot(161).

4.Qo'shma fe'l metaforizatsiyasi: hazonlar o'ziga kelolmas, daraxtlar yer chizar(9), xushidan ketadi daraxt-u bog'lar(11), o't qo'yar firoq(30), rangi o'char bulutning(53), yulduzlar og'rinib tashlaydi nigoh(68), quyosh imzo chekar, oy bo'lar guvoh(95), zamin dod solar(114), iltifot ko'rsatdi tun(120), havotirga tushar dala-qir(125).

5.Kesim vazifasida kelgan frazeologizmlar metaforizatsiyasi: daraxtlarni ochilar baxti(16), tun shimarar yengini(18), g'iybatchi kun qiya yasarkan qildan(29), tunlar menga o'zin oqlaydi(93),

sovuq kunlar bag‘rini ochdi(101), parvoyiga keltirmas dunyo, pinagini buzmay oqar soy, kirakashlik qilib yurar oy(212), qochdi ariqlarning labidan qoni(209), osmon qancha yuvmasin, oqarmaydi kosasi(210).

6.Ko‘makchi fe‘l metaforizatsiyasi: o‘zini chavaqlab tashladi anor(24), falakdan irg‘itib tashladi osmon(42), izg‘irin paltosin oldi qo‘liga(120), o‘rindi xo‘rsinib qo‘yadi goh-goh(132), yodsiramay qo‘ydi shaharlar(166), shamol so‘ka boshlaydi bog‘ni(214).

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki shoira Xosiyat Rustamova metaforaning betakror na‘munalarini yarata olgan qalami o‘tkir ijodkordir. Uning lirikasidagi har bir metaforik birlik o‘ziga xos lingvostilislik vazifa bajara olgan. Ular she‘rning ekspressivligini, emotsionalligini, ta‘sir kuchini oshirishga, ijodkor nechog‘lik mahorat sohibasi ekanligini ochib berishga, she‘riyat ixlosmandlari qalbini larzaga solishga, ularni chuqur o‘yga toldirishga hizmat qilgan.

Shoira Xosiyat Rustamova asarlarida metaforadan tashqari metonimiya ham o‘ziga xos stilistik ma‘no ifodalashga hizmat qilgan.

Metonimiya (yun. Metonymia – qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo‘llash; shunday qo‘llash asosida bir predmet, harakat, belgi nomining boshqa predmet, harakat yoki belgi nomiga ko‘chishidir.

Predmetlarning nomlarini boshqa predmetlarga o‘tkazishning bir necha xil ko‘rinishlari mavjud:

1.Avtorning nomi uning asari o‘rnida qo‘llanadi;

Meni ham honamda kutar **Marina**,
Meni ham honamda kutar **Pasternak**. (80)

2.Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajaruvchi qurolning nomi bilan almashtiriladi;

Qog‘ozlar yotibdi uzala tushib,
Kitoblar sarg‘aygan,
Qalam beqadr.(298)

3.Ma‘lum bir yerda, mamlakatda, davlatda yashab turgan kishilar ma‘nosi shu yerga, mamlakat yoki davlatga ko‘chiriladi;

Shahar atrofimda yuribdi yelib,
Bobomni eslayman,
Eslayman yurtini,
Hayot ekan – **Berlin** bugunga kelib,
Mening oyog‘imni ko‘ziga surtdi. (93)

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, shoira chet el shoir va yozuvchilari asralari bilan yaqindan tanishganligi, chet musiqachilar qo‘shiqlarini ko‘p tinglaganligi uning lirikasida ham o‘z ifodasini topgan.

Xosiyat Rustamova she‘riyatida narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi butun-bo‘lak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga ko‘chirish tarzida talqin etiladigan sinekdoxa ham ifodalilik uchun hizmat qilgan. Bunda bir butun narsa, hodisa va inson haqida uning uzviy bir qismi, bo‘lagi haqida fikr yurutiladi yoki boshqacha qilib aytganda, butun o‘rnida qism yoki qism o‘rnida butun nazarda tutiladi.

Faqat shu **yurakning** ro‘parasida,
O‘zimni ortiqcha sezaman, xolos. (24)

Ushbu she‘riy parchada keltirilgan “**Yurak**” so‘zi sinekdoxa bo‘lib, bu yerda **butun inson** yoki **insonning tuyg‘ulari, qalbi** nazarda tutilmoqda. Ya‘ni bu qism orqali butunni ifodalovchi sinekdoxa namunasidir. Yurak timsolida **his-tuyg‘ular, ruhiy holat**, balki **muhabbat** aks ettirilgan. Shu orqali lirik qahramonning **ichki iztirobi, sevgidagi beqarorlik** ta‘sirchan tarzda ifodalanadi.

May ham yig‘laydi yum-yum,
Ketgisi kelmas hech ham,
Kechikib kelar **iyun**. (39)

Keltirilgan parchada **“May”** so‘zi sinekdoxa hisoblanadi. U **butun bahor faslini**, hatto **bahor oxiridagi ruhiy holatni** ifodalashga hizmat qilgan. Aytish mumkinki, **may** oyining o‘zi emas, **yilning bir davri, tabiatdagi muayyan holat**, yoki inson kayfiyati timsol sifatida keltirilgan. **“May ham yig‘laydi yum -yum”** satrida may oyi jonlantirilgan: u inson kabi yig‘laydi, ya‘ni tabiat holati (mavsumiy yomg‘irlar, bulutli kunlar) insoniy his-tuyg‘u bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu jonlantirish (personifikatsiya) vositasi orqali tabiat – tirik, his qiluvchi obrazga aylantirilgan, ob-havo esa lirizm va emotsional fonni kuchaytirib kelgan. **“Kechikib kelar iyun”** – vaqtning dramatik tasviri. Iyun bu yerda tabiiy faslning navbatdagi bosqichi, yana bir ramziy obraz – yangi bosqich, o‘zgarish, ehtimol umid. Bu sotsial yoki ruhiy turg‘unlik, umid va haqiqat orasidagi tafovut timsoli ham bo‘lishi mumkin. Bu uch satrli she‘rda muallif **fasl va oylar orqali ruhiy kechinmalarni** ifodalagan. **Sinekdoxa, personifikatsiya va epitetlar** vositasida **tabiat – vaqt – inson** o‘rtasidagi bog‘liqlikni obrazli ifodalagan. She‘r ichida tashqi (tabiatdagi) holatlar – ichki (ruhiy) holatlarni aks ettiruvchi oyna sifatida qo‘llangan.

XULOSA

Demak, Xosiyat Rustamova o‘z lirikasida lingvistik birliklarning stilistik imkoniyatlarini ochib berish orqali kitobxonning xis-tuyg‘ularini ifodalash, unda estetik zavq uyg‘otishga erisha olgan, o‘z uslubiga ega, qalami o‘tkir ijodkorlardan biridir. Buni biz o‘z dissertatsiyamizda metaforalarning lingvostilistik imkoniyatlarini atroflicha tahlil qilish orqali guvohi bo‘ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахманова.О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1961, с.231.
2. О‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Кожина.М.Н. Стилистика русского языка, с.95.
4. Abdullayev.A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent. “Fan” nashryoti. – B,22.
5. Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nashryoti. – B,63.
6. Xosiyat Rustamova. Beboosh bulutlar. Toshkent. “O‘zbekiston” nashryoti. 2019.
7. Ёуллошев М. Балиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкенгт: Фан, 2008. – Б. 27.
8. Yo‘ldoshev.M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan. 2007. – B.69.
9. Xosiyat Rustamova. Devor. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashryot. –Toshkent, 2006.
10. Xosiyat rustamova. Rido. “Yangi asr avlodi”. – Toshkent, 2004.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000